

To'xtayeva Umida Shamsiddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Kechki ta'lim va magistratura fakulteti
KBIA-72 guruh talabasi

ISLOMIY BANKLAR VA ULARNING O'ZBEKISTON BANK-MOLIYA TIZIMIDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy banklarning tashkil qilinish tarixi, ularning mamlakatlar iqtisodiyotida qo'llanilishi, va O'zbekiston moliya tizimida qo'llanilishi mumkinligi haqida tahlil qilinadi. Jahon tajribalari o'rganilib, ushbu turdagi banklarning aholi va davlat uchun keltiradigan foydalari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: islomiy banklar, foiz, sudxo'rlik, shariat, ribo, moliya, qarz, pul, daromad, lizing, omonat.

Abstract: This article analyzes the history of the establishment of Islamic banks, their use in the economy of countries, and their possible use in the financial system of Uzbekistan. World experiences are studied and the benefits of this type of banks for the population and the state are also discussed.

Key words: Islamic banks, interest, usury, Sharia, ribo, finance, debt, money, income, leasing, deposit.

Аннотация: В данной статье анализируется история создания исламских банков, их использование в экономике стран, а также их возможное использование в финансовой системе Узбекистана. Изучается мировой опыт, а также обсуждаются преимущества данного типа банков для населения и государства.

Ключевые слова: исламские банки, проценты, ростовщичество, шариат, ribo, финансы, долг, деньги, доход, лизинг, депозит.

Kirish. Yer yuzida ikki milliarddan ortiq musulmonlar yashaydi {1} va ular uchun foizlardan foydalanish mumkin emas. Lekin hozirgi dunyomizda insonning e'tiqodi uni moliya xizmatlaridan foydalanishdan to'sa olmaydi. Kimdir an'anaviy kredit olishni istamasa, u inson uchun dunyoning ko'p mamlakatlarida muqobil variantlar taklif etiladi. Sababi, hamma teng imkoniyatlardan foydalanishi kerak va jamiytda paaydo bo'ladigan bunday imkoniyatlar inklyuziv rivojlanish, ya'ni jamiyat a'zolari o'rtasida adolat bilan taqsimlangan va barcha uchun teng imkoniyatlar beruvchi iqtisodiy rivojlanishga yo'l ochadi {2}.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, dunyodagi aholining aksariyat qismini musulmonlar tashkil etadi va shu sababdan, islomiy mamlakatlardagi bank va moliya tizimini o'rganish muhim sanaladi. **Islomiy banklar-** bu shariat tamoyillariga asoslangan va islomiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali amaliy qo'llanma hisoblanadi. Shariatda qayd qilingan yoki to'langanligidan qat'iy nazar kredit berish uchun belgilangan foizlar yoki qo'shimchalar olishni ta'qiqlaydi.


Dastlab, 1980-yilda sarmoya-depozit rejasi ishga tushgan va bu reja banklarni moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi uchun investorlar ishtirokida amalga oshirilgan. Ushbu rejada nafaqat sarmoyadorlar, balki o'z mablag'larini yig'ish maqsasida oddiy aholi ham ma'lum miqdorli pulni banklarga omonat sifatida topshirgan. Shundan so'ng, 1987-yilda „Islomiy banklar portfeli“ tashkil qilingan va ushbu tashkilotga xalqaro miqyosda bir necha davlatlar a'zo bo'lishgan. Bu tashkilotning maqsadi esa davlatlarni o'zaro moliyaviy jihatdan asosan savdo-sotiq sanoatida qimmatli qog'ozlar yoki lizing orqali operatsiyalar orqali qo'llash bo'lgan va bunda shariatga muvofiq naqd pul va qarzlar kiritilmagan. Shu tarzda rivojlanishlar davom etib, 1973-yil Saudiya Arabistonining Jidda shahrida islomiy banklar to'g'rida konferensiya tashkil etildi va komissiya qaroriga muvofiq, 1974-yil Islom Taraqqiyot Bankiga asos solindi, hamda 1975-yil 20-oktabrda, ushbu bank o'zining dastlabki faoliyatini boshladi. Shundan so'ng, ko'plab mamlakatlar, shu turdagi bank tizimidan andoza olishni boshladi, va dastlab arab mamlakatlari, Misr va Malayziyada qo'llanilishi boshlandi.

Islomiy banklarni mamlakat hududida joriy etish orqali, shariatning barcha qoidalariga muvofiq moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish, foiz, ribo va sudxo'rlikdan voz kechish mumkin. Aslida, bu turdagi banklarda foizlar umuman qo'llanilmaydi va foyda va zarar ham mijoz va bank o'rtasida teng bo'linadi. Ya'ni, islomiy banklarda omonat ochish to'g'risida so'z yuritsak, tijorat banklaridan farqli o'laroq, islomiy banklarga pullar mijozning xohishiga binoan ayni bir biznesga investetsiya qilinadi va olinadigan foyda ham zarar ham o'rtada taqsimlanadi. Islomiy banklar, bundan tashqari, aholiga foyda keltirish maqsadida **LIZING** amaliyotini ham ishlab chiqdi. Ushbu amaliyotda, biror bir narsa, masalan, mashina yoki uy-joy mijoz tomonidan sotib olinadi va sotib olingan narsani so'mmasini to'lash uchun bank bilan shartnoma qilinadi. Bunda, sotib olingan mahsulot so'mmasi ma'lum davrga, foizsiz, oymaoy, doimiy ravishda bir xil so'mmadan to'lab boriladi. Hozirda, ushbu amaliyot nafaqat islom banklarida, balki tijorat banklarida ham qo'llaniladi. Ushbu prinsplar asosida, aholi aksariyat hollatda ziyon ko'rmasdan, islomiy qoidalarga asosan o'zlari xohlagan narsalarni moliyalashtirishi mumkin. Hozirda, O'zbekistonda islomiy banklar faoliyat yuritmaydi, biroq aholining talablariga ko'ra kelgusi yillarda ushbu turdagi banklar ham o'z faoliyatini boshlashi ko'zda tutilmoqda. O'zbekiston aholisi uchun ushbu sohaning yanada tezroq rivojlanishi va Islom banklarining paydo bo'lishiga huquqiy-me'yoriy asosning yetishmasligi, soliq va boshqaruv infratuzilmasining yo'qligi, shuningdek, aholi orasida ayniqsa Islomiy moliyalashtirishga aloqador savodxonlikning pasligi xalaqat bermoqda. Ayni vaqtda, mamlakatimizda islomiy prinsiplarga asoslangan yagona kompaniya, **IMAN INVEST**, ish yuritadi va bu tashkilot kelgusida bunaqa turdagi korporatsiyalarning asosi bo'ladi deyish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda mavzuga oid xorijiy, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari va rasmiy internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Islom huquq tizimida turmush tarzini tartibga soluvchi qonun qoidalar yig'indisi – Shariat orqali davlat boshqaruvi va jamiyat farovonligi ta'minlanadi. Bu huquq tizimida asosiy manba sifatida Qur'on va sunnatdan olinadi. Bundan tashqari, ijmo ham huquq manbasi sifatida foydalaniladi.

Har qanday davlatda huquq tizimlari mavjud va ularni uchta katta guruhga bo'lish mumkin (1-rasm)



Xulosa va takliflar. Har bir inson o'zining e'toqodidan kelib chiqqan holda moliya xizmatlaridan foydalanishga haqli va hozirgi kunda dunyo bo'ylab an'anaviy moliya xizmatlariga alternativ yechimlar yaratilgan zamonda yashayapmiz. Ya'ni, islom moliyasi xizmatlari shariat qoidalariga asoslangan va ularga ribo aralashmaydi. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida islom moliyasi aktivlari yildan-yilga ko'payib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, islomiy moliya xizmatlaridan foydalanish bir tomondan foydalanuvchi e'tiqodini hurmat qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan jamiyatda axloqiy me'zonlarni ushlab turishdir, uchinchi tomondan esa katta moliyaviy mablag'lar jalb qilishning bir usulidir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O. Akhmadjonov, A. Abdullayev, S. Yusupov, J. Anvarov (2021) ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVFLAR. Scientific progress 2 (8) 639-642
2. O. Akhmadjonov, A. Abdullayev, S. Yusupov, J. Anvarov
3. (2022) ISLOM MOLiyASI
4. 3. O. Akhmadjonov, A. Abdullayev, M. Mamayusupov
5. O. Umarjonov (2021) Raqamli iqtisodiyotni boshqarish muammolari. Science and education,2(10), 636-642
7. 4. S. Ahmed (1989), Islamic Banking and Finance, Journal of Monetary Economics, Vol 24, pp. 157-167
9. 5. <https://ipakyulibank.uz> Islamic banking
10. 6. <https://sqb.uz> Islomiy moliyalashtirish
11. 7. www.garp.org The Islamic Finance Risk Initiative